



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

10/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/10 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети; Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири; Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети; Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети; Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Norbekov Ahmadjon Norbekovich*

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY HOLATI ..... 11-18

*Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li*

BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI ..... 19-23

*Нуритдинова Нодира Сирожсона*

XX-ACP БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА) ..... 24-28

*Чориев Шоҳруҳ Ҳолтура ўғли*

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА ..... 29-38

*Жумаева Шоира Бердияровна*

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ ..... 39-43

*Jo'rayev Muxriddin Xasanovich*

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI GEOGRAFIYASI ..... 44-51

*Муқимова Рисолат Рустамжон қизи*

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР ..... 52-56

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич*

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТҮЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ ..... 57-69

*Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna*

MINTAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI ..... 70-75

*Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich*

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKТИV ZARURATI ..... 76-86

*Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович*

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ ..... 87-92

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 93-102

*Qobiljon Isaev*

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY BAHOLASH ..... 103-110

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI***Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKİSTONDA "AHOLI HAYOT SİFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA  
YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLİL) ..... 111-116

*Rasulov Zoҳiddin Usarovich*

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ҲАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙФУНЛИГИ ..... 117-122

*Tavmuradov Жамишид Элмурадович*

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС ..... 123-128

*Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li*

YUSUF QORABOG'ΙY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROΣI ..... 129-132

*Muxtorova To'tixon Solijonovna*

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR  
VA AMALIYOTLAR ..... 133-137

*Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich*

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 138-142

*Ahmedova Dilrabo*

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIY, MA'NAVIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI  
IJTIMOIY POTENSIALI ..... 143-150

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA  
BERILISHI ..... 151-159

*Seytnazarova Injayim*

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH TAHLILI ..... 160-168

*Tukhtakhodjaeva Zulfiya*

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY ..... 169-174

*Abdusalamov Doniyor Togayali oglı*

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND  
PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES ..... 175-179

*Axmedov Anvar Botirovich*

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR ..... 180-184

*Aminov Farrukh Komiljon Ugli*

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL  
REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES ..... 185-193

*Sharipov Bobur Salimovich*

RETSİPROKLİ SEMANTIK DERIVATSIYA ..... 194-201

*Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna*

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 202-205

<i>Samatov Farxod Muminovich</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) .....	206-210
<i>Kendjayeva Zemfira</i>	
METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI.....	211-216
<i>Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», « IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI .....	217-221
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i>	
ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKALAR .....	222-226
<i>Шарапова Лола Станиславовна</i>	
ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА.....	227-232
<i>Ҳакимова Мастура Файзиллаевна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҶОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАҲНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) .....	233-239
<i>Mo'soyeva Hayitgul O'rroqovna</i>	
"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI .....	240-245
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI .....	246-250
<i>Багаутдинова Ильмира Салаватовна</i>	
ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ .....	251-255

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich</i>	
EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE .....	256-268
<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА .....	269-275
<i>Hong Weixing</i>	
INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA .....	276-284
<i>Султанова Сабоҳат Алишеровна</i>	
ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	285-290
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i>	
O'ZBEKİSTONNING AXBOROT TEXNOLOGİYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLİY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI .....	291-298
<i>Абдусамиева Дилярабо Абдувахоб кизи</i>	
ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ .....	299-304
<i>Khalikov Khayot</i>	
THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH .....	305-311

*Даулетова Динара Даулетовна*

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Tolipov Bahtiyёр Hamitovich*

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ ..... 318-324

*Sobirova Gulibarno Zainitdin қизи*

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА ..... 325-335

*Xolmatova Ziroatxon Anvarovna*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA  
INNOVATSION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR ..... 336-339

*Abduxoliqov Sardor Safarovich*

YOSH DZYUDOCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI  
O'YINLARNING O'RNI ..... 340-344

*Usmonova Mohizoda Avazjon qizi*

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV  
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI ..... 345-348

*Xodjiyeva Zumrad*

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI ..... 349-352

*Turdiyev Ismoil Allayorovich*

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI  
HAQIDA ..... 353-358

*Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich*

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODLARI ..... 359-364

*Ishonkulov Sherali Sharifovich*

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI  
DASTURLARDAN FOYDALANISH ..... 365-372

*Raxmatov Rafik G'ayratovich*

IMKONIYATI ChEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI  
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI ..... 373-378

*Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna*

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI ..... 379-383

*Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna*

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) ..... 384-387

*Qodirov Mirjalol Tolmasovich*

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI ..... 388-392

*Karimova Aziza*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV  
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI ..... 393-399

*Nishonov Nodir Alimjanovich*BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI ..... 400-404*Xidirova Durdona Muxtorovna*SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIY MADANIY  
MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI ..... 405-408

**Received:** 10 December 2024**Accepted:** 15 December 2024**Published:** 25 December 2024*Article / Original Paper***THE NECESSITY OF DEVELOPING THE PHARMACEUTICAL INDUSTRY IN REGIONS****Bakhridinova Yulduz Bakhridinovna,**

Independent researcher at Termez State University.

**Abstract.** This article analyzes the development of the pharmaceutical industry in the regions. Scientifically based proposals and recommendations for the development of the pharmaceutical industry in the regions were also developed.

**Keywords:** pharmaceuticals, pharmaceutical industry, medicinal plants, health care, modern economy, natural resources, local plant.

**MINTAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI****Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna,**

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqalarda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqalarda farmaseftika sanoatini rivojlantirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** farmaseftika, farmaseftika sanoati, dorivor o'simliklar, aholi salomatligi, zamonaviy iqtisodiyot, tabiiy boylik, mahalliy o'simlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N09>

**Kirish.** Inson biror kasallikka chalinmaguncha barcha jiddiy va xavfli kasalliklar faqatgina o'tmishda qolgan deb o'ylaydi. Hozirda esa zamonaviy tibbiyot barchasiga davo topishiga umidvor. Afsuski, XXI asrda ham keng tarqagan kasalliklarga e'tiborsizlik tufayli inson hayoti xavf ostida qolishi, hattoki o'lim bilan yakun topishi mumkin. Shu sababli, aholi salomatligi mamalakatning har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi ko'rsatkichlardan biridir. Binobarin jismonan va aqlan sog'lom avlodlardan yetuk kadrlar yetishib chiqadi va ular mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu sababli respublikamizda farmaseftika tarmog'ini jadal rivojlantirish, aholi salomatligini yaxshilash maqsadida hukumatiz tomonidan bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Bularga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022-2026 yillarda respublikaning farmaseftika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-55-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20-maydag'i "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali

qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-139 sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20-dekabrdagi PF-4554 sonli "O'zbekiston Respublikasi farmaseftika tarmog'ida islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-dekabrdagi 1009-tonli "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritish hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari va shu kabi qator normativ-huquqiy hujjatlarni keltirishimiz mumkin. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mamlakatimizda farmaseftika sanoatini tizimli rivojlantirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mintaqalarda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari keng tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimi O.A.Abdug'aniyev ilmiy ishlarida asosan iste'mol savatini optimallashtirish masallariga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, mintaqalarda iste'mol savatini optimallashtirish iqtisodiy va tibbiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli farmatsevtika sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlilini ekonometrik modellar yordamida amalga oshirish bugungi kunning juda muhim masalalaridan hisoblanadi [4].

Xorijlik olimlardan Muhammad Fahim o'zining "Role of medicinal plant in human health disease" nomli maqolasida aholi salomatligida dorivor o'simliklarning o'rnini juda muhim ekanligini yoritib bergen. Mazkur maqolada mintaqalarda aholi salomatligini yaxshilash uchun dorivor o'simliklar va farmaseftikaning sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlili amalga oshiriladi [5].

N. Varshney, D. Jain, Dr. Pracheta, D. Mitralarning "Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview" nomli asarida farmaseftika sanoati nafaqat tibbiyotda balki, kosmetika va oziq-ovqat sanoatini tashkil etishini ham o'z ichiga olishini keltirib otgan. Ularning fikricha, aholining sog'ligini mustahkamlashda eng asosiy tabiiy doridarmoqlar yetishmasligi muammosini hal etishda dorivor o'simliklar bilan ta'minlanish darajasi muhim vosita hisoblanadi [6].

Noohi Nasim, Inavolu Sriram Sandeep va Sujata Mohantylar esa tabiiy o'simliklardan foydalanib dori-darmon mahsulotlarini ishlab chiqarishning bugungi kundagi istiqbollari va yondashuvlari, mintaqalarning tabiiy iqlim sharoiti, geografik joylashuvlaridan kelib chiqqan holda dorivor o'simliklarni yetishtirishga mo'ljallangan ekin maydonlarini masalalariga to'xtalib o'tgan [7].

Rossiyalik olimlardan O.A.Melnikova va M.Y.Melnikovlar o'z ilmiy asarlarida MDH mamlakatlari misolida yuqumli kasallikkarni davolashda farmatsevtikaning o'rni bo'yicha izlanishlar olib borgan. Unda mintaqalarda dorivor o'simliklarni yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, farmatsevtika sohasiga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari tadqiq etilgan. [8].

Belarusiyalik tadqiqotchi E.B.Каравеевская ilmiy asarlarida Belarus respublikasi misolida dorivor o'simliklarni ekishning iqtisodiyotdagagi ahamiyatini yoritib bergen. Uning fikricha, mintaqalarda dorivor o'simliklarni yetishtiruvchilar bilan ularni saqlash, tashish va uni qayta ishlovchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan


muammolar va sohaning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda eng muhim masala hisoblanadi [9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqalarda farmatsevtika sanoati holatini iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilish hamda va istiqbollarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, va iqtisodiy-statistik usullaridan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** So'nggi yillarda farmatsevtika sanoati aholi salomatligiga bevosita ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omillar bir hisoblanadi.

Hozirgi paytda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga qaraganda butun dunyoda 50 mingdan ortiq dorivor o'simliklar tibbiyotda davolash maqsadlarida foydalaniladi. Davolash maqsadlarida foydalanish ko'rsatkichi eng yuqori davlatlar - Hindiston (20% ni) va Xitoy(19%ni)dir. Bu davlatlarning farmakopeyalarida asosan dorivor o'simliklar xom-ashyosi asosida ishlab chiqarilgan preparatlar keng o'rinni egallaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, farmatsevtika bozori tartibga solinadigan iqtisodiy tizim sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonining xususiyatlarini ta'sir qiluvchi va belgilovchi omillar majmuasi ta'sirida bo'ladi. Ularning barchasini to'rtta guruhga birlashtirish mumkin: ishlab chiqarish, tartibga solish, ichki va tashqi bozor (1-rasm).




## **1-rasm. Farmatsevtika mahsulotlarining samarali mintaqaviy bozorini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlarini belgilovchi omillar.**

Umuman olganda, barcha omillar u yoki bu darajada o'zaro ta'sir qiladi va umuman mamlakatda ham, mintaqalarda ham farmatsevtika bozorining munosabatlari va rivojlanishiga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Ularning ishlab chiqarish, ichki va tashqi bozor kabilari mavjud va amalda ishlaydi. Tartibga soluvchi, mavjud, ammo to'liq foydalanilmaydi. Farmatsevtika mahsulotlarining samarali bozorini shakllantirish va rivojlantirishda alohida o'rinni ishlab chiqarish omillari egallaydi. Bularga ilmiy-texnika bazasi, farmatsevtika va tibbiyot texnologiyalari sohasidagi ilmiy ishlanmalar darajasi, innovatsion mahsulotlarning mavjudligi, sanoatda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish uskunalarini va boshqa shu kabilarni keltirishimiz mumkin.

Dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50 foizi dorivor o'simliklar xom ashysidan tayyorlanmoqda. Ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda va profilaktikasi uchun foydalaniladigan dorivor preparatlarning 77 foizi, jigar va oshqozon-ichak kasalliklari dorivor preparatlarning 74 foizi, balg'am ko'chiruvchi dorilarning 73 foizi, qon to'xtatuvchi dorilarning 60 foizi dorivor o'simliklar xom ashysi asosida ishlab chiqarilmoqda. Farmatsevtika sanoati uchun dorivor o'simliklardan foydalanish mexanizmi rivojlangan davlatlarda o'lim xavfi past, uzoq umr ko'rish ko'rsatkichi yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Jahon tajribasida uzoq umr ko'ruvchi davlatlar ro'yxatida yetakchilardan bo'lgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Shvetsariya kabi davatlarning tibbiyotida dorivor o'simliklar bilan davolash va ulardan samarali foydalanish sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Dunyoda eng uzoq umr ko'ruvchi mamlakat Gonkong hisoblanadi. Gonkongda o'rtacha umr ko'rish 85,83 yoshni tashkil qiladi. Keyingi o'rnlarda Makao (85,51 yosh) va Yaponiya (84,95 yosh) davlatlari egallagan (1-rasm). O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich (doimiy aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi) 73,8 yoshni tashkil etmoqda.



**1-rasm. Uzoq umr ko'ruvchi mamlakatlarning reytingi**

Mamlakatimizda ham farmatsevtika sanoati uchun dorivor o'simliklarni optimallashtirish muammosi dolzarbliji, birinchi navbatda, alimentar-bog'liqli kasalliklarga kurashish bo'yicha davlat dasturlari samarasi juda ham past darajada ekanligi bilan bog'liq

bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yuqumsiz kasalliklar har yili jami mamlakatdagi o'lim holatining 78 foizini tashkil qilmoqda. Birgina 2024-yilning I choragida mamlakatda 40197 kishi vafot etgan bo'lib, shundan, erkaklar soni 21,9 ming, ayollar soni esa 18,3 ming nafarni tashkil etmoqda. Ushbu o'lim ko'rsatkichlari tahlil qilinganda jinsi va yoshi bo'yicha standartlashtirilgan o'lim sabablari tuzilishida birinchi o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari (yurak eshemik kasalligi, arterial gipertoniya, miokard infarkti, insult va hokazo) egalladi (57,9 foiz). Ulardan keyin xavfli o'smalar (9,1 foiz), nafas olish a'zolari kasalliklari (7,5 foiz), baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan o'lish (4,5 foiz), ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari (4,1 foiz), yuqumli va parazitar kasalliklari (1,2 foiz) joy oldi. Farmatsevtika sanoatida dorivor o'simliklardan foydalanmaslik past darajadagi yashash ko'rsatkichiga olib kelmoqda, bu esa o'z navbatida jamiyatda daromadning yuqori darajada farqlanishi va kasallik hamda o'lim ko'rsatkichlarida haddan tashqari ko'payishi bilan izohlanmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda yuqoridagi dolzarb muammoli masalalarni ijobiy hal etish maqsadida farmatsevtika sanoati iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida qarab, bu sohaga alohida e'tibor berilmoqda. Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida respublikada 100 dan ortiq turdag'i dorivor o'simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan. Ushbu dorivor o'simliklarning asosiy qismini tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi.

Tahlillarimiz natijasi ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining ko'p qismi farmatsevtika sanoatida dorivor o'simliklar xom ashyosidan tayyorlangan pereparatlarni iste'mol qilmasdan balki ko'plam kimyoviy yo'llar bilan olingan dori mahsulotlarini iste'mol qilayotganligi natijasida aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nosog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari amalda o'z natijasiga to'laligicha erishmayapdi.

Ma'lumki, mamlakatimizning tabiiy geografik joylashuvi va iqlim sharoti to'rt faslda ham dorivor o'simliklarni yetishtirish imkonini beradi. Xususan, 2020-yil boshida respublikaning barcha hududlarida jami 11,5 ming ga yer maydonida 27 turdag'i dorivor o'simliklar plantatsiyalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yil davomida dorivor o'simliklar plantatsiyalari 162 ta subyektlar tomonidan 15,8 ming ga yetkazilib, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan 45 turdag'i dorivor va ziravor o'simliklarning 17,3 ming tonna xomashyosi yetishtirildi [7]. Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda [8].

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilishga davlatning eng muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqla, so'nggi yillarda yurtimizda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, aholi salomatligini yaxshilash maqsadida tibbiyot tizimi faoliyatini tubdan yuksaltirish, dori-darmon ta'minotini yaxshilash, hududlarda ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yo'lga qo'yish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ilmiy va amaliy ishlar yangicha mazmun kasb etmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aholi salomatligini oshirish hozirgi kunda butun dunyo oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Shu sababli, dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish va talab tobora ortib bormoqda. Butun dunyoda ro'y bergan pandemiya natijasi ko'rsatmoqdagi insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardor bo'lishi lozim. Yoshi ulug' va surunkali kasalliklarga chalingan insonlarning immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalar mutloq zararsiz va afzal. Bu o'rinda

farmaseftika mahsulotlarining o'rni juda muhim. Bizning fikrimizcha, aholi salomatligini oshirish uchun tibbiy soha bilan bir vaqtida farmaseftikada dorivor o'simliklar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish jarayonlarini tizimlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ayniqsa COVID 19 pandemiyasidan keyingi davrda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Koronavirus asoratlarini davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash nafaqat iqtisodiyotimizga balki aholi salomatligini tiklashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa kasalliklarni turlari bo'yicha alohida guruhlarga ajratgan holda mahalliy dorivor o'simliklardan foydalanishni yo'lga qo'yish samaraliroq deb hisoblaymiz.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022-2026 yillarda respublikaning farmaseftika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-55-sonli farmonlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-139 sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20-dekabrdagi PF-4554 sonli "O'zbekiston Respublikasi farmaseftika tarmog'ida islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O.A.Abdug'aniyev. Iste'mol savatiga kiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini modellashtirish // Dissertatsiya (RhD). Toshkent 2020 y.
5. Mohammed Faheem and Dr. Sumer Singh. Role of medicinal plants in human health disease. International Journal of Current Research Vol. 12, Issue, 11, pp.14695-14697, November, 2020. DOI: <https://doi.org/10.24941/ijcr>.
6. Nidhi Varshney, Divya Jain, Pracheta Janmeda, and Debasis Mitra. Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview // Published online 2021 Sep 18.
7. Noohi Nasim, Inavolu Sriram Sandeep, and Sujata Mohanty. Plant-derived natural products for drug discovery: current approaches and prospects. Published online 2022 Oct 18. doi: [10.1007/s13237-022-00405-3](https://doi.org/10.1007/s13237-022-00405-3)
8. О.А. Мельникова, М.Ю. Мельников. Роль и задачи оказания фармацевтической помощи при возникновении инфекционных заболеваний. Научно-практический рецензируемый журнал "Современные проблемы здравоохранения и медицинской статистики" 2021 г., № 4 Scientific journal "Current problems of health care and medical statistics" 2021 г., № 4.
9. Е.В. Караваевская. Экономика и парадигма нового времени Выпуск №3, 2019. Экономическая эффективность выращивания лекарственных трав в условиях экономики республики Беларусь
10. [www.fao.org](http://www.fao.org) - Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xalqaro tashkilotining (FAO) rasmiy sayti.
11. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining rasmiy sayti.
12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*N<sup>o</sup> S/10 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).